

EDUCATIONAL SIGNIFICANCE OF CHILDREN'S MUSIC FOLKLORE

Raxmatova Nargiza Dolibayevna

Tashkent State Pedagogical University

Annotation: *This article highlights the role of folklore in elevating human spirituality, the formation of children's feelings of devotion to the Motherland, respect for nature and traditions of their native land, the formation of the best human feelings and high human qualities among the younger generation, the importance of folklore songs in enriching their spiritual world.*

Keywords: *folk music, uzbek children's folklore, song, education, upbringing, the younger generation, national traditions, musical heritage, pedagogy.*

BOLALAR MUSIQA FOLKLORINING TARBIYAVIY AHAMIYATI

Raxmatova Nargiza Dolibayevna

Toshkent davlat pedagogika universiteti

Musiqqa nazariyasi va metodikasi kafedrasida dotsent v.b.

Annotasiya: *Mazkur maqolada inson ma'naviyatini yuksaltirishda folklorning o'rni, folklor qo'shiqlarini yosh avlod qalbida jo bo'lishi orqali bolalarda ona Vatanga sadoqat, tabiat va ona yurt an'analariga hurmat hissini shakllanishi, yosh avlodda eng yaxshi insoniy tuyg'ularni, yuksak insoniy fazilatlarini shakllantirib, kamol toptirishda, ularning ma'naviy dunyosini boyitishda folklor qo'shiqlarining ahamiyati yoritilgan.*

Kalit so'zlar: *xalq musiqasi ijodiyoti, o'zbek bolalar folklori, qo'shiq, ta'lim, tarbiya, yosh avlod, milliy an'analar, musiqiy meros, pedagogika.*

Аннотация: *В данной статье освещается роль фольклора в возвышении духовности человека, формирование у детей чувства преданности Родине, уважения к природе и традициям родного края, формирование у подрастающего поколения лучших человеческих чувств, высоких человеческих качеств, значение фольклорных песен в обогащении их духовного мира.*

Ключевые слова: *народное музыкальное творчество, узбекский детский фольклор, песня, образование, воспитание, подрастающее поколение, национальные традиции, музыкальное наследие, педагогика.*

O'zbek bolalar folklori xalq ijodining tarkibiy qismi sifatida qadim zamonlarda yuzaga kelgan va asrlar davomida yangi-yangi bo'yoqlar, shakllarda rivojlanishda davom etgan hamda boyib borayotgan yaxlit bir tizimdirki, bunda janrlar rang-barangligi, asarlar xilma-xilligi muhim o'rin tutadi. Musiqiy folklor xalq badiiy ijodining ajralmas qismi bo'lib, odatda og'zaki shaklda mavjud bo'lib, faqat ijrochilik an'analari bilan og'izdan-og'izga o'tib kelgan.

Biz bolalar folklori haqidagi ilk qarashlarni Mahmud Qoshg'ariyning "Devonu lug'otit turk" asarida uchratamiz. Unda tarixiy asosdan to bugungi ko'rinishga kelib qolgan folklor namunalari haqida fikrlar bayon etiladi. O'zbek bolalar folklorini o'rganish 1960-yillardan boshlab o'zgacha tus ola boshladi. Z.Husainovanning "O'zbek topishmoqlari" (1966), G.Jahongirovning "O'zbek bolalar folklori" (1975), shuningdek, O.Safarovning "Bolalarni erkalovchi ozbek xalq qoshiqlari" (1983), "O'zbek bolalar poetik folklori" (1985), "Alla-yo alla" (1999), "Chittigul" (2004), Sh.Galievning "O'zbek bolalar o'yin folklori" (1998) singari tadqiqotlari bilan bolalar folklori yanada boyidi¹.

Bolalar folklori tadqiqotchisi, "O'zbek xalq ijodi" nomli ko'p jildli turkumidan o'rin olgan "Boychechak" kitobining tuzuvchilaridan biri Oxunjon Safarov o'zbek bolalar folklorini tadqiq etish bo'yicha ishlar yetarli darajada emasligini ta'kidlaydi. Shunday bo'lsa-da, bolalar folkloristikasi bo'yicha muayyan tajriba to'plangan va Y.Peshcherova, Elbek, X.Zarifov, M.Alaviya, Z.Husainova, T.Mirzayev, M.Murodov, B.Sarimsoqov, G.Jahongirov, X.Razzoqov, S.Ro'zimboyev va boshqa mualliflar, filolog olimlarning ishlarini alohida ko'rsatish mumkin. Mazkur mualliflarning bolalar qo'shiqlari to'plamlari adabiy-matnli variantda, nota yozuvlarisiz berilgan².

¹ Jo'rayeva S.U. Bolalar folklorining o'ziga xos xususiyatlari. <https://zenodo.org/records/files>.

² Qodirov R. Musiqi pedagogikasi. T.: 2018, 61 b.

Inson ma'naviyatini yuksaltirishda folklorning o'rnini haqida so'z borganda, aslida, bu jarayon go'daklikdan boshlanishini ta'kidlash lozim. Onalarimiz aytgan allalar, erkalamalar, aytim-olqishlar hamda ertaklar bolalar nutqini o'stirishda, dunyoqarashini kengaytirishda hamda estetik didini shakllantirishda ahamiyati kattadir.

Har bir xalq ijodida qo'shiq muhim o'rin egallaydi. Qo'shiq insonga umrining oxirigacha hamroh bo'lib, uning quvonchli va qayg'uli kunlari, baxt haqidagi orzu-umidlari qo'shiq ijodida o'z ifodasini topadi. Bolalar folklor qo'shiqlari mazmunida esa ularning o'ziga xos jo'shqin hayoti, dunyoqarashi, yil fasllari, turli bayramlarga munosabatning ifoda etilishi o'z aksini topadi.

Shaxsni tarbiyalash va kamolga yetkazishda musiqa, xususan qo'shiq muhim rol o'ynaydi. Chunki qo'shiq o'zida badiiy va musiqiy g'oyalarning o'zaro uyg'unlashgan obrazlarini tarkib toptiradi. Bu qo'shiqlarning ohanglari, ritmlari va shu bilan bir qatorda, oddiyligi, tushunarliqligi bolalarning musiqiy rivojlanishlari, ularni musiqa ijrochiligi va ijodiyotiga oshno bo'lishlariga juda katta yordam beradi. Bu borada ayniqsa, milliy folklor qo'shiqlarning mazmundorligi o'zgachadir.

Xalq ijodiyoti xalqimizning bebaho ma'naviy-ahloqiy va tarbiyaviy mulki, boyligidir. Xalq musiqa ijodi orqali o'quvchilar milliy qadriyat va an'analarni yanada chuqurroq anglaydilar. Musiqa pedagogikasining eng muhim vazifalaridan biri ushbu bebaho musiqaning bolalar tomonidan o'zlashtirilish samaradorligi hamda zarurligi hisoblanadi. Hozirgi kunda yosh avlodni milliy an'analarga sadoqat ruhida tarbiyalashda musiqiy folklor asarlarining o'rnini va ta'siri beqiyosligini e'tiborga olgan holda, ularni o'rgatishga alohida ahamiyat berilmoqda. Endilikda folklor qo'shiq, o'yin-aytimlar bolalar estetik ta'lim-tarbiyasining muhim qismi sifatida maktabgacha ta'lim tashkilotlarida hamda umumiy o'rta ta'lim maktablarida o'rganilmoqda. Chunki, folklor qo'shiqlarini yosh avlod qalbida jo bo'lishi orqali bolalarda ona Vatanga sadoqat, tabiat va ona yurt an'alariga hurmat hissi shakllanadi. Zero, yosh avlodda eng yaxshi insoniy

tuyg'ularni, yuksak odamiylik fazilatlarini shakllantirib, kamol toptirishda, ularning ma'naviy dunyosini boyitishda folklor qo'shiqlarining ahamiyati beqiyosdir.

Hozirda o'zbek xalq musiqa ijodiyoti pedagogika, madaniyat va san'at ta'limi muassasalari o'quv jarayonlariga qator fanlar ("O'zbek xalq musiqa ijodi", "An'anaviy musiqa asoslari" va b.) tarzida tatbiq qilingan.

Shuningdek, xalq musiqa ijodiyoti an'analari bag'ishlangan ishlar qiziqish uyg'otadi. Bu ishlar taniqli san'atshunos olimlar R.Abdullayev, F.Karamatov, Y.Rajabiy, M.Raxmonov, M.Qodirov, T.G'ofurbekov va boshqalarining ilmiy ishlarida ham tatbiq etilib, yoritib berilgan. Xususan, taniqli olim ("El-yurt xurmati" ordeni nishondori) F.M.Karomatli "O'zbek xalqi musiqa merosi" turkumining yangi jildlarini nashrga tayyorladi, qator maqolalar e'lon qildi. R.S.Abdullayev "Markaziy Osiyo xalqlari marosim musiqasi"ga bag'ishlangan ilmiy monografiyani nashrdan chiqardi. Shuningdek, R.Yu.Yunusov va O.A.Ibroximovlarning "O'zbek xalq musiqa ijodiyoti" o'quv-uslubiy qo'llanmalari chop etildi.³

Xalq musiqa ijodi o'zining sarmazmun boy jilvasi, mohiyati, sodda va ayni chog'da go'zal nafosati bilan xalq badiiy xavaskorlik ijodiyotining barcha turlarini, ularning repertuarlarini, madaniy-ma'rifiy tadbirlarni boyitib, bezabgina qolmay, ijtimoiy turmushimizga ham faol ta'sir ko'rsatmoqdaki, bu qator masalalar, folklor turlarining, jumladan bolalar folklorining shu kungi madaniy-ma'rifiy, milliy-g'oyaviy hayotimizda tutgan o'rnini belgilaydi.

Shuni alohida ta'kidlash lozimki, yurtimizda bolalar musiqiy folkloriga va shu asosda yosh avlodga ta'lim-tarbiya berishga jiddiy e'tibor qaratilayotgani bejiz emas. Chunki bolalar folklor qo'siqlari milliy musiqiy merosning tarkibiy ajralmas qismi bo'lib, yosh avlodda milliy qadriyatlar idrokini shakllantirishda muhim omildir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Qodirov R. Musiqa pedagogikasi - T., 2018

³ Karamatov H. va b. O'zbekiston san'ati – T., 2001 111 b.

2. Karamatov H. va b. O'zbekiston san'ati – T., 2001
3. Jo'rayeva S.U. Bolalar folklorining o'ziga xos xususiyatlari.
<https://zenodo.org/records/files>.
4. Dolibayevna, R. N. (2024). MILLIY QADRIYATLAR YOSHLAR TARBIYASINING AJRALMAS QISMI. *PEDAGOGS*, 54(2), 189-192.
5. Yuldasheva, N., & Raxmatova, N. (2016). O'zbek musiqa adabiyoti. *Toshkent-«iqtisod-moliya» -2016*.